




# CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*2022- yil yanvar-iyul holatiga ko'ra, dastlabki  
ma'lumot*




**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel: 76-225-65-74**


## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI



### Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

### O'sish sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Uyushmagan savdo


### Tarkibiy qism, foizda



### Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **9 827,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **11,3 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **753,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **135,8 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **7 486,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **107,8 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 587,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **119,9 %**) tashkil etdi.

### Uyushmagan savdo, mlrd. so'm




## HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm



Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **9 827,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **111,3** % ni tashkil etdi. Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida **92,3** % kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga va **7,7** % yirik korxonalar hissasiga to'g'ri keldi.

*Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Denov tumani 23,0 % ulush bilan 2 827,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.*



*Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Bandixon tumani 1,1 % ulush bilan 112,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.*

### CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI



2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan viloyatning Qumqo'rg'on (117,9 %), Uzun (115,8 %), Angor (115,1 %) va Jarqo'rg'on (114,2 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining ko'payish sur'atlari kuzatilib, eng yuqori ko'rsatkich Qumqo'rg'on da qayd etildi.

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>9 827,1</b>	<b>111,3</b>	<b>753,1</b>	<b>135,8</b>	<b>9 074,0</b>	<b>109,7</b>
<b>Termiz sh.</b>	<b>2 038,4</b>	<b>113,2</b>	<b>494,7</b>	<b>156,7</b>	<b>1 543,6</b>	<b>104,0</b>
<i>tumanlar:</i>						
<b>Oltinsoy</b>	<b>361,9</b>	<b>106,7</b>	<b>4,7</b>	<b>45,3</b>	<b>357,2</b>	<b>108,6</b>
<b>Angor</b>	<b>458,1</b>	<b>115,1</b>	<b>21,2</b>	<b>253,7</b>	<b>436,8</b>	<b>112,2</b>
<b>Bandixon</b>	<b>112,3</b>	<b>110,2</b>	<b>1,6</b>	<b>78,4</b>	<b>110,7</b>	<b>110,9</b>
<b>Boysun</b>	<b>424,0</b>	<b>106,5</b>	<b>2,9</b>	<b>33,9</b>	<b>421,1</b>	<b>108,1</b>
<b>Muzrabot</b>	<b>379,4</b>	<b>107,7</b>	<b>3,6</b>	<b>77,3</b>	<b>375,8</b>	<b>108,1</b>
<b>Denov</b>	<b>2 256,5</b>	<b>111,0</b>	<b>125,3</b>	<b>192,7</b>	<b>2 131,2</b>	<b>108,3</b>
<b>Jarqo'rg'on</b>	<b>535,0</b>	<b>114,2</b>	<b>15,6</b>	<b>68,1</b>	<b>519,4</b>	<b>116,6</b>
<b>Qumqo'rg'on</b>	<b>409,3</b>	<b>117,9</b>	<b>5,2</b>	<b>46,4</b>	<b>404,2</b>	<b>120,2</b>
<b>Qiziriq</b>	<b>401,7</b>	<b>112,8</b>	<b>4,0</b>	<b>52,2</b>	<b>397,7</b>	<b>114,1</b>
<b>Sariosiyo</b>	<b>382,4</b>	<b>106,6</b>	<b>4,7</b>	<b>23,4</b>	<b>377,7</b>	<b>111,5</b>
<b>Termiz</b>	<b>189,0</b>	<b>105,4</b>	<b>13,7</b>	<b>52,6</b>	<b>175,2</b>	<b>114,4</b>
<b>Uzun</b>	<b>402,5</b>	<b>115,8</b>	<b>10,0</b>	<b>190,1</b>	<b>392,6</b>	<b>114,7</b>
<b>Sherobod</b>	<b>542,9</b>	<b>109,2</b>	<b>19,0</b>	<b>111,6</b>	<b>523,9</b>	<b>109,1</b>
<b>Sho'rchi</b>	<b>933,8</b>	<b>109,9</b>	<b>26,9</b>	<b>90,0</b>	<b>906,8</b>	<b>110,6</b>





## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **35,8 %** ga o'sdi va **753,1** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **7,7 %** ulushiga to'g'ri keladi.


Eng past ulushga ega hududlar, % da



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **9 074,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **9,7 %** ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **92,3 %** ni tashkil etdi.

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR  
KESIMIDA ULUSHI, foizda**

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Boysun (**99,3 %**), Muzrabot (**99,1 %**), Qiziriq (**99,0 %**) va Sariosiyo (**98,8 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **7,7 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz shahrida (**24,3 %**), Termiz (**7,3 %**), Denov (**5,6 %**) va Angor (**4,6 %**) tumanlarda kuzatildi.



**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik**

**Yirik korxonalar**

## AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2022- yilning yanvar-iyul oylari holatiga ko'ra, o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **3 564,1** ming so'mni (2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **8,8 %** ga oshdi) tashkil etdi.

### Hududlar kesimida ma'lumot (ming so'mda)

	Hajm, ming so'm	2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>3 564,1</b>	<b>108,8</b>
<b>Termiz sh</b>	<b>10 666,4</b>	<b>109,2</b>
<i>tumanlar:</i>		
<b>Oltinsoy</b>	<b>1 957,4</b>	<b>104,4</b>
<b>Angor</b>	<b>3 316,9</b>	<b>112,7</b>
<b>Bandixon</b>	<b>1 418,5</b>	<b>107,2</b>
<b>Boysun</b>	<b>3 530,4</b>	<b>104,6</b>
<b>Muzrabot</b>	<b>2 566,7</b>	<b>105,6</b>
<b>Denov</b>	<b>5 611,7</b>	<b>108,9</b>
<b>Jarqo'rg'on</b>	<b>2 345,5</b>	<b>111,7</b>
<b>Qumqo'rg'on</b>	<b>1 672,2</b>	<b>115,4</b>
<b>Qiziriq</b>	<b>3 364,4</b>	<b>110,4</b>
<b>Sariosiyo</b>	<b>1 748,4</b>	<b>104,3</b>
<b>Termiz</b>	<b>2 338,5</b>	<b>103,0</b>
<b>Uzun</b>	<b>2 232,5</b>	<b>112,2</b>
<b>Sherobod</b>	<b>2 677,1</b>	<b>106,8</b>
<b>Sho'rchi</b>	<b>4 263,7</b>	<b>107,3</b>

### Eng yuqori hajmga ega hududlar





### Eng past hajmga ega hududlar



Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Termiz sh (**10 666,4** ming so'm), Denov (**5 611,7** ming so'm), va Sho'rchi (**4 263,7** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda




Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-iyul oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 587,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **19,9 %** ga oshdi. Shu jumladan, 12-bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **651,1** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **73,3 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **936,0** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **-0,9 %**) tashkil etdi.

### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda





## UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	<b>1587,1</b>	<b>119,9</b>	<b>651,1</b>	<b>172,7</b>	<b>936,0</b>	<b>98,8</b>
Termiz sh. tumanlar:	63,0	136,5	62,9	136,5		
Oltinsoy	139,1	108,1	32,6	152,4	106,5	99,3
Angor	79,6	125,5	55,0	169,1	24,6	79,4
Bandixon	76,1	110,4	5,7	140,5	70,4	108,6
Boysun	109,1	103,1	53,5	190,8	55,6	71,5
Muzrabot	178,8	110,8	54,2	188,1	124,6	94,0
Denov	150,9	99,3	84,8	183,5	66,2	62,5
Jarqo'rg'on	102,3	160,8	44,3	2,0 m	58,0	139,2
Qumqo'rg'on	144,7	160,4	54,4	2,0 m	90,3	142,6
Qiziriq	112,5	134,5	34,6	2,0 m.	77,9	114,7
Sariosiyo	117,2	95,7	43,5	184,8	73,7	74,6
Termiz	44,8	105,4	7,1	2,4 m.	37,7	95,2
Uzun	101,7	184,6	47,9	158,8	53,8	216,5
Sherobod	42,5	115,2	32,1	118,9	10,3	104,2
Sho'rchi	124,7	120,7	38,3	180,8	86,4	105,3

2022- yilning yanvar-iyul oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **651,1** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **936,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

\* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda


\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI

2022- yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning barcha tumanlarlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **651,1** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**305,7** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.



## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd. so'm



2022- yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning barcha tumanlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **936,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **681,3** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **236,5** mlrd. so'mni, otlar **13,3** mlrd. so'mni, parrandalar **4,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




2022- yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **2,0 %** ni tashkil etib, **194,3** mlrd. so'mga yetdi va 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **4,6 %** ga ko'paydi. Bunda jami savdo aylanmasining **96,6 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>194,3</b>	<b>104,6</b>	<b>6,7</b>	<b>36,6</b>	<b>187,6</b>	<b>123,2</b>
Termiz sh.	66,6	110,6			66,6	122,0
tumanlar:						
Oltinsoy	5,4	110,3			5,4	121,3
Angor	6,1	115,6			6,1	127,1
Bandixon	1,0	121,3			1,0	133,4
Boysun	4,0	119,8			4,0	131,7
Muzrabot	4,2	107,4			4,2	118,1
Denov	31,3	113,9			31,3	125,3
Jarqo'rg'on	12,0	109,6			12,0	120,4
Qumqo'rg'on	4,9	111,3			4,9	122,3
Qiziriq	3,9	114,2			3,9	125,6
Sariosiyo	8,3	34,3			8,3	124,8
Termiz	19,2	115,7	1,7	138,9	17,5	125,2
Uzun	9,4	248,2	5,0		4,4	128,4
Sherobod	11,4	107,6			11,4	118,3
Sho'rchi	6,5	111,7			6,5	122,8




## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Ulgurji savdo tovar aylanmasi, foizda




Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **2 452,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **22,9** % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **671,5** mlrd. so'mni (**61,3** % ga o'sdi) tashkil etdi.

### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da





## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizd	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizd
Surxondaryo viloyati	2452,4	122,9	671,5	161,3	1780,9	112,7
Termiz sh.	704,7	96,9	104,3	60,6	600,4	108,1
tumanlar:						
Oltinsoy	39,3	96,3	16,5	79,6	22,9	113,3
Angor	51,2	109,5	0,1	42,8	51,1	109,8
Bandixon	12,2	105,6	0,0	6,8	12,2	107,8
Boysun	31,6	115,0	1,1	108,6	30,5	115,2
Muzrabot	31,9	94,4	19,4	86,3	12,5	110,6
Denov	752,4	117,4	130,7	109,8	621,8	119,2
Jarqo'rg'on	159,0	109,8	29,5	105,4	129,6	110,9
Qumqo'rg'on	175,9	356,6	149,8	5,9 m.	26,2	107,9
Qiziriq	15,3	103,3	0,0	1,3	15,3	108,1
Sariosiyo	65,0	109,5	2,2	166,7	62,7	108,2
Termiz	124,1	114,9	14,4	142,3	109,6	112,1
Uzun	44,3	199,2	19,8	58,5 m.	24,5	111,7
Sherobod	71,2	219,9	50,8	3,5 m.	20,4	112,9
Sho'rchi	174,1	475,9	132,8	255,9 m.	41,4	114,7

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Sho'rchi (**25591,1 %**), Uzun (**5849,3 %**), Qumqo'rg'on (**597,2 %**), Sherobod (**355,0 %**) va Sariosiyo (**166,7 %**) tumanlarida kuzatildi.